


E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**  
**2023, № 3**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.  
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvoohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.  
**Elektron manzil:** nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor (Andijon davlat Pedagogika instituti rektori)

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori (O'zR FA tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi)

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Qurbonova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoir Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA \*\*\* СОДЕРЖАНИЕ \*\*\* CONTENTS

ANIQ VA TABIIY FANLAR \*\*\* EXACT AND NATURAL SCIENCES \*\*\* ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ

Norqulov J.F., Azimov R.B., Amirov A.A.	G'ildirak tishlariga ta'sir qiladigan eguvchi kuchlanishni tish yuzasi qattiqligiga bog'liqligini o'rganish va takomillashtirish	3
Tukhtaev B.J., Kanokova Sh.Z., Xudoyberdiyeva Sh.A., Olimov X.K.	Анализ средних поперечных импульсов частиц при столкновении Au+Au и Pb+Pb в сфере энергии $(s_{nn})^{1/2}=62-5020$ GeV	8
Masharipov S. I.	Hardy Littlewood Polya relation for nonlinear reflections	12
Umarov S.H., Hasanov N.Z., Hallokov F.K., Narzullaeva Z.M.	Effect of pressure and thermal expansion on the optical absorption edge and the deformation potential model in TLGAS <sub>2</sub>	16
Xayitova X.G'.	Ikkinchi tartibli matritsaviy model operatorning ba'zi spektral xossalari	23
Aliyeva T.A.	Features of the natural growth development of urban population in Nakhchivan economic region	29
<b>TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ</b>		
Asadov T.H.	O'zbek tilidagi murakkab tarkibli ayrim affikslarning tabiati xususida (ravishga nisbat beriladigan affikslar misolida)	37
Azimov I.M.	Miyon Buzrukning adabiy til, istiloh masalalariga munosabati	42
Bozorova R.Sh.	Nemis tilida gidronimlarning kelib chiqish tarixi	48
Davlatova M.H.	Ikkilamchi predikat bilan ifodalanadigan rezultativ tuzilmalar turlari xususida	55
Fayzullayev O.M., Ergasheva G.R.	Lingvomadaniyatshunoslikning fan sifatida shakllanishi, rivojlanish bosqichi va sohani o'rganishga doir yondashuvlar	60
Shirinova M.Sh., Rzayeva Ch.V.	Kinofilmlar tilida evfemizmlarning tutgan o'rni va ahamiyati	64
Хидирова Г.Х.	Замонавий терминологияда терминнинг объектив таърифи, тавсифи ва чегарасини ажратиш муаммолари	69
Hamroyeva N.N.	Shaxslararo muloqot jarayonida dialogik diskursning o'rni va kommunikativ strategiyalar	76
Ismoilova D.R.	Language crimes in English language	81
Narzullayeva F.O.	Tilning nominativ va ekspressiv funksiyalarining o'rganilishi	85
Rabieva M.G'.	Olamning kontseptual manzarasi kognitiv tajribaning muhim komponenti sifatida	90
Rasulov Z.I., Sharopov Sh.Sh.	Kooperatsiya tamoyilining pragmalingvistikadagi o'rni	94
Uzakova L.A.	O'zbek va ingliz tillarida to'y bilan bog'liq leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi: ingliz to'y marosimlarini o'rganish	99
Xolova Sh.D.	"Avoir" fe'li ishtirokidagi inson his-tuyg'ularini ifoda etuvchi frazemalar tarjimasining o'ziga xosliklari	103
Xudoyev S.S.	O'zbek va nemis topishmoqlarida metaforik birliklarning antropotsentrik tadqiqi	108
Xusainova Z.Y.	Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da stemming jarayoni tavsifi	113
Yusupova D.Y.	Euphemistic findings of the poet Halima Khudoiberdiyeva	120

<b>Одилова Г.К.</b>	Болалар адабиётида глуттоник дискурс таржимасида услуб ва маъно адекватлиги	126
<b>Жумаев А.А.</b>	Ўзбек ва немис бадий матнларида орнитопэтонимларнинг маъно оттенкалари	132
<b>Murtazoyev O.N.</b>	Intertekstuallikning tilshunoslikda qoʻllanilishi	136
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Oʻrayeva D.S., Adizova O.I.</b>	Folklore in the context of modern culture	140
<b>Eshonqulova G.T.</b>	Badiiy asarda maʼnoni implisit ifodalashning kommunikativ strategiyalari	149
<b>Курбанов С.С.</b>	“Ўткан кунлар” романида оқил оталар образи талқини	154
<b>Muxammadova M.M.</b>	"Koʻhkan" taxallusi bilan sheʼrlar yozgan Shayboniy hukmdor talqini	158
<b>Ganieva O.Kh., Rajabova Z.T.</b>	The concept of the motif of loneliness in 20th century American literature	163
<b>Sultonova D.S.</b>	Ingliz adabiyotida kriminal mavzudagi prozaik asarlar taraqqiyoti	167
<b>Umarov U.A.</b>	Characteristic features of hero archetype in the example of Harry Potter	171
<b>Umurova N.R.</b>	“Iqromoma” va islom falsafasi	176
<b>Urmonova N.M.</b>	The deontology of translation and interpretation	181
<b>Babayev O.A.</b>	Jaloliddin Rumiy asarlarining arab tiliga qilingan tarjimalarda gʻarb tarjimalari taʼsiri	186
<b>Бахронова М.А.</b>	Бадий адабиётда касалликлар рамзи	191
<b>Бокарева М.А.</b>	Пути развития русского реализма рубежа хх-ххі веков: от соцреализма до экзистенциального постреализма	196
<b>Жамилова Б.С.</b>	Ўзбек ва турк болалар адабиётдаги муштарак туйғулар	203
<b>Nuritdinova Sh.S.</b>	Hamza Imonberdiyev sheʼriyatida ramziylik va erk motivi ifodasi	210
<b>Ражабова Р.З., Ражабова Г.З.</b>	Эртак жанри стилизациясининг асослари ва тараққиёт хусусиятлари	215
<b>Usmonova Z.H.</b>	Rey Bredberining “Marsga hujum” (“Марсианские хроники”) asarida tarjima xususiyatlari va tarjimon uslubi	221
<b>Sadigova N.E.</b>	Romanticism of Byron and his work “Cain”	227
<b>MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Maqsudova N.U.</b>	Ziyovuddin Haziniy sheʼrlarining manbalari	233
<b>“NAVOIY GULSHANI”</b>		
<b>Ражабова М.Б.</b>	Риёву ужбу ҳасад дафъин эт ...	237
<b>PEDAGOGIKA *** ПЕДАГОГИКА *** PEDAGOGICS</b>		
<b>Bahronova B.B.</b>	Abdurauf Fitratning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari	240
<b>TARIX *** ИСТОРИЯ *** HISTORY</b>		
<b>Muminov D.A.</b>	Samarqandga evakuatsiya qilingan sanoat korxonalarini va ularning faoliyati	244
<b>Raxmatulloyev M.X.</b>	Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda ommaviy axborot vositalarining tarixi va rivojlanish bosqichlari	249
<b>Xakimov J.N.</b>	Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasining savdo-sotiq munosabatlarining yoʻlga qoʻyilishi	253

**ЎЗБЕК ВА ТУРК БОЛАЛАР АДАБИЁТИДАГИ МУШТАРАК ТУЙҒУЛАР**

**Жамилова Башират Сатторовна,**  
Бухоро давлат университети  
Ўзбек тилишунослиги ва журналистика  
кафедраси профессори,  
филология фанлари доктори.  
[b.s.jamilova@buxdu.uz](mailto:b.s.jamilova@buxdu.uz)

**Аннотация:** Мақолада турк ва ўзбек болалар адабиётининг айрим намуналари мисолида ёш қаҳрамонлар руҳияти, туйғулари кечинмасининг бадиий ифодасидаги ўзаро муштарак хусусиятлар ҳақида фикр юритилган. Айниқса, турк ва ўзбек детектив қиссаларида жиноят оламига кириб қолган ўсмирлар руҳиятидаги зиддиятлар талқини, жамиятнинг уларга муносабати ва ҳар икки халқ анъаналаридаги ўзига хосликларнинг сюжет драматизмига таъсири масаласи кабилар қиёсий ўрганилган. Шунингдек, Али Оқбош, Мустафо Қутлу, Мустафо руҳи Ширин каби турк адибларининг болалар учун ёзган ҳикоялари, шеърларидаги образлар ифодаси, қаҳрамонлар кечинмаси ҳамда уларнинг ранг-баранг талқини ўзбек болалар адабиётига хос ҳамоҳанг туйғулар билан муқоясалаб таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** детектив, сюжет, драматизм, усул, тасвир, бадиий психологизм, психологик тасвир, руҳият, туйғу, муштарак, ҳамоҳанглик, макон, замон.

**Аннотация:** В статье на примере некоторых образцов турецкой и узбекской детской литературы рассматриваются общие черты художественного выражения психики и чувств юных героев. В частности, в турецких и узбекских детективах в сравнительном аспекте изучены интерпретация конфликтов в психике подростков, вошедших в криминальный мир, реакция на них общества, влияние особенностей традиций обоих народов на драматизм сюжета. Также анализируются рассказы, написанные для детей турецкими писателями, такими как Али Акбош, Мустафа Кутлу, Мустафа Рухи Ширин, экспрессия персонажей в их стихах, переживания героев и их красочная интерпретация в сравнении с гармоничными чувствами, характерными для узбекской детской литературы.

**Ключевые слова:** детектив, сюжет, драма, приём, образ, художественная психология, психологический образ, настроение, чувство, общее, гармония, пространство, время

**Abstract:** In the article, on the example of some samples of Turkish and Uzbek children's literature, the common features of the artistic expression of the psyche and feelings of young heroes are considered. Especially in Turkish and Uzbek detective stories, the interpretation of conflicts in the psyche of adolescents who entered the criminal world, the reaction of society to them, the influence of the characteristics of the traditions of both peoples on the drama of the plot comparatively studied. It also analyzes the stories written for children by Turkish writers such as Ali Akbosh, Mustafa Kutlu, Mustafa Rukhi Shirin, the expression of characters in their poems, the experiences of the characters and their colorful interpretation in comparison with the harmonious feelings characteristic of Uzbek children's literature.

**Keywords:** detective story, plot, drama, technique, image, artistic psychology, psychological image, mood, feeling, general, harmony, space, time

**Кириш.** Ўтган асрнинг сўнгги чорагидан эътиборан, болалар адабиётида бўй кўрсатган қатор асарлар жаҳон халқлари адабиёти билан контекстуал ўрганишни тақозо этади. Жумладан, Т.Маликнинг “Алвидо, болалик” (1987) қиссасини турк адиби Я.Камолнинг “Илонни ўлдирсалар” (1976) романи билан қиёсан ўрганиш фикримизни бу жиҳатдан қувватлайди.

Турк адабиётининг машҳур вакилларида бўлмиш Яшар Камолнинг (Камол Содик Гўкчели) “Илонни ўлдирсалар” детектив романида оилада юз берган котиллик туфайли оғир рухий изтиробларни бошидан кечирган Ҳасаннинг болалик олами, қарийб ўн йиллик изтироблари, тушкун холати ва руҳияти теран акс этган [4,42].

Хронологик жиҳатдан Я.Камолнинг детектив романи илгарироқ ёзилгани эътиборга олинса, жиноят оламига кириб қолган ёшлар психологиясининг бадиий талқини жаҳон болалар адабиётида

бирмунча илгари пайдо бўлган. Т.Малик қиссасининг собиқ шўро тузуми даврида ёзилгани назарда тутилганда эса болалар уйда тарбияланувчи ўсмирларнинг жиноят кўчасига кириб кетаётганлиги бош мавзу қилиб олиниши, бундай болалар руҳиятининг тадқиқи, муаллифнинг ва китобхоннинг жиноятчига нисбатан хайрихоҳлиги ўзбек адабиётида кам учрайдиган ҳодиса эди. Шу маънода, ҳар икки асарнинг ўзига хос долзарб аҳамияти, бадиий-эстетик қиммати, ифода усуллари, сюжетдаги драматизм ҳамда жиноятга қўл урган ўсмирлар руҳияти таҳлилида ўзаро муштарак хусусиятлар борлиги кўзга ташланади.

**Асосий қисм.** Аввало, ҳар иккала асар ҳам детектив йўналишда ёзилган, бошидаёқ жиноятнинг “ҳиди анқиб турган” тугун билан бошланади. Я.Қамол ўз қаҳрамонини шундай таништиради: “Отаси ўлдирилганда Ҳасан ё олти, ё етти ёшда эди...”[4,7]. Т.Малик эса қиссасининг илк саҳифасидаёқ қаҳрамон тилидан шундай жумлаларни келтиради: “Ҳозир кўлимга милтиқ бериб қўйишса-ю, дарвозадан отам билан онам кириб келишса, шартта отардим...” [5,188].

**Иккинчидан,** детектив асарлар ўз қаҳрамонлари руҳиятига ҳамоҳангликда замон ва макон, табиат тасвирига – психологик портрет ва деталларга эътибор қаратиш билан бошланади: Ҳасаннинг болаликда энг кўп паноҳ топган жойи Анаварза қоялари эди. Булутнинг сояси, ботқоқлик, арилар, сариқ заъфаронлар, гулларнинг вазмин ифори, *Баҳор қуёши* қиздирган қоялар орасида Ҳасаннинг жарликлардан куни билан бургут уяларини титиб, бургут боласи ва тухумини олиш учун тентираб юриши инсоний туйғуларнинг чилпарчин бўлаётганидан далолат беради.

Т.Малик асар муқаддимасида ўз мулоҳазаларини баён қилади. Қуёш қаердадир тоғ ортидан, қаердадир чўл адоғидан, қаердадир асрий музлар орасидан бош кўтариб, дарахт кокилларини ўйнаб, биллурий булоқ сувларига тўйиб олгач, хонадонларга аста мўралаши, айниқса, *баҳор қуёшининг* тонгги кўркини кўриш барчага бир хил насиб қилмаслигини тиканли сим, темир панжаралар, баланд деворлар ортидан мўралаган тонгги қуёшнинг озодликдаги каби кўнгилга илиқлик бера олмаслигини қиёслайди.

**Учинчидан,** қаҳрамонлар руҳияти тасвири асарнинг асосий қисмини эгаллайди. Масалан, Ҳасан Анаварза осмонидаги қонли бургутлар айланишини яхши эслайди. Ўша отишма юз берган тун, ўша акс-садо ва ўша бургутларнинг эрталабгача сузилиб учишлари унинг учун мангуга энг кўрқинчли хотира бўлиб қолади.

“Алвидо, болалик!” асарининг “Уйқусиз тун, ёхуд қотиллардан бирининг руҳий кечинмалари” фаслида ҳам анҳорга ташланган мурдадан кўрқиб, кечаси билан алаҳсираб чиққан Асрор руҳияти очиб берилади.

**Тўртинчидан,** ўсмирларни жиноят оламига бошлаган муҳит ҳамда фожианинг асарларда изчил тасвирланиши диққатни тортади. Айтайлик, Ҳасан ўқ узилганда отасининг бақириб юборганини эшитади. Ҳасан ўзига келганида ўқ овози узоқ-узоқларда, Анаварза қояликларида узун акс-садо берар, қишлоқнинг ичидан эса бўғиқ қичқирувга ўхшаш шовқин эшитиларди. Бирдан қонни кўрди. Отаси дастурхонга юзтубан йиқилган, сочлари палов товоғига тушганди. Отасидан отилиб-отилиб кўп қон оқарди...”

Болалар уйда вояга етаётган Қамариддин онаси йўқлаб келганида эсини танийдиган 10 ёшли бола эди, энди унда онасига нисбатан аллақачон нафрат пайдо бўлиб улгурган, онаси келганида ички овози: “Қамариддин қочиб қол, бу она эмас, ялмоғиз. Сендан ўн йил хабар олмаган хотин она бўларканми”, – дейди.

**Бешинчидан** жиноятнинг юз бериш жараёни ҳар иккала асарда ҳам ўсмирлар нигоҳи, тасаввури, ҳулосаси билан ўзига хос усулда акс этишидир. Масалан, Ҳасаннинг қариндошлари, бувиси ва амакилари томонидан ўн йил давомида бунга тинимсиз даъват қилинади. Ўсмир ёшдаги қаҳрамон бу муаммонинг ечимини тополмайди, ҳатто кечалари бақириб чиқади: “Онам ўлмоғи лозим. Эсма ўлиши керак. Эсма ўлади...” деган қарорга келади ноилож. У кўлидаги тўппончадан онасига бир неча марта ўқ узади. Онасининг боши тандирга кириб қолиб, сочлари ёнарди. Ҳасанни эса Анаварза қоя сандигининг ичидан кучуги топади...

Асарда Эсма антропоними ўзига хос рамзий маъно ташимокда. У орқали персонажнинг шамолдек нотургун, беқарор характер-хусусияти, табиати, исми жисмига мослиги имплицит (яширин) ишора билан очиқ берилмоқда.

Қамариддин Ҳасандан фарқли равишда онасидан нафратланарди. Уларникига бир одам серқатнов эди. Дастлаб кўринганида онаси: “Дадангнинг дўсти, биздан хабар олиб туради” деб изоҳ беради. Қамариддин унга: “Болаларингни ташлаб, онамга уйлан, мени ўғил қилиб ол! Уйлансанг, уйлан, бўлмаса ўлдираман!” деб шарт қўяди. Дастлаб беимон отасини, бемехр онасини ўлдиришни режа қилган Қамариддин бегонани ўлдиради. Онасини ўлдиришдан тийилади. Шунда ҳам “Тўғри

қилдим, болалари беимон отадан қутулишди. Болаларини алдаб юрган одам одаммиди?” деган қарори билан ўзини оқлайди [5,29].

Умуман, асарларнинг шунга ўхшаш бир-бирини тўлдирувчи, ўхшаш ёки фарқ қилувчи хусусиятларнинг яна анчасини санаш мумкин. Одатда аксарият асарларда бош қаҳрамон, кўпинча, ижобий таассурот уйғота олган болалар ва ўсмирлар бўлиб, уларнинг руҳияти, характери, портрети кенг тасвир этилган бўлса, бу кассаларда айнан жиноят оламига “мансуб” ўсмирлар ҳақидаги бадиий психологизм асардаги драматизмни кучайтиради.

Детектив жанр хусусиятига кўра, жиноятчилик илдизи ва сабабини қидиришда ёзувчи айнан психологик тасвир деталларига кўпроқ урғу бериши замон, макон, муаллиф ҳамда жамиятдаги янгиланаётган тафаккур тақозоси ҳамдир. Ҳеч ким онасидан жиноятчи бўлиб туғилмагани рост. Аммо ана шу жиноят оламига бевосита ёки билвосита кириб қолган, бу кўчага тушган болами, ўсмирми, каттами ким бўлмасин, энг аввало, инсон экани, уларнинг ҳам ўзига хос руҳий изтироблари, бошидан кечирган кўргиликлари бўлиши мумкинлиги ҳамда қай кўринишда содир бўлиши болалар адабиёти учун ўзгача ҳавонинг, пафоснинг ифодасидир, албатта.

Шу билан бирга, макон ва замонга боғлиқ, миллий менталитетга дахлдор тамойиллар мазкур асарларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳам ойдинлаштиради:

1. *Мазкур детектив асарларда жабрланувчи, марҳум ва жиноятчи – қотил муносабатларида тафовут бор.* Масалан, Ҳасан ўз онасининг қотили бўлса-да, унга муносабати ғоят муҳаббатли эди. Бунини қуйидаги тасвир асослай олади: “Онаси ҳовлида у ёқ-бу ёққа ўтиб юрарди. Дунё гўзали эди онаси. Ҳуснда тенги йўқ эди онасининг. Ёшгина, кичкина бир қизчага ўхшарди. Отаси эса қариб қолган, соч-соқоли оқарганди. Қандай бўлган бўлса, шундайлигича эслаб қолганди, отасини... Онасининг белигача тушиб турувчи узун сочлари бўларди. Чукурова қишлоғининг ҳаммаси шундай гапириб юришарди. Балки онаси дунёнинг энг гўзал аёли бўлгандир? Шу каттагина Чукуровада онасини ёқтирмаган йигит топилмасди. Онаси барча ошиқларига рад жавобини берар, Ҳасандан – ёлғиз ўғлидан айрилишни хоҳламасди”.

Т.Маликнинг қаҳрамони Қамариддин эса отаси кимлигини ҳалигача билмайди. Онасини учинчи синфга бораётганида илк бор кўрган. Қамариддин туғруқхонада кўз очиб, болалар уйда тетапоя бўлди, аклини таниди. Ота-она меҳри, киндик қони тўкилган уй деган тушунчалар унга бегона бўлди... Қамариддин нотаниш одамлар келиб болаларни олиб кетишларини билгач, қандайдир умид билан кимнингдир келишини, бошидан силашини, маҳкам қучоқлаб ўпишини интиқ кутарди. Одамлар келишарди, аммо уни олиб кетишмас эди. Ғилай бўлгани сабабими ё айиқполвондай хунук юришини ёқтирмайми, уни ҳеч ким чақирмас, маҳкам қучоқламас, ўпмас эди...

2. *Ўсмирларнинг қотилликка қўл уриш сабабига эътибор қаратилса,* Ҳасан жуда узоқ вақт руҳий изтироб исқанжасида яшагандан сўнг, шуни тушуниб ета бошлайдики, ё онаси, ё ўзини ўлдириши керак. Ҳасаннинг отаси онасини олиб қочиб келгани учун биринчи ошиғи томонидан отиб ўлдирилган. Аммо бутун қариндошлари болани тинимсиз тавқу лаънат қилишади (“Ғоҳишанинг киндигида пайдо бўлган, ғоҳишанинг. Отасининг қотилининг қорнида ётган нокас ўғил...”, “Отасини ўлдирган хотин билан юзма-юз, ёнма-ён яшаб юрибди. Бу одам эмас, тўнғиз қавми, чўчка қавмидандир” каби); Қамариддиннинг нафрати уни гўдаклигида ташлаб кетган ота-онасига, сўнгра барча одамларга қаратилган бўлиб, нафсониятини топтаган одамни маст ҳолда пичоқлайди.

3. *Жиноятчи ўсмирларнинг оилавий аҳволи ҳам турлича бўлган:* Ҳасан ўз оиласида, онаси ва амакилари, бувиси “ғарбиясидаги” ўсмир; Қамариддин туғилибоқ, детдомга келтириб ташланган, онаси ундан воз кечган, отасини эса мутлақо танимайди.

4. *Асарда бош қаҳрамон – жиноят содир қилган ўсмирларнинг тақдири ифодасида ҳам муаллифлар турлича ёндашган:* Ҳасан қутулиб келиб, отасининг меросига эга бўлади, оилали, фарзандли бой-бадавлат яшайди. Қамариддиннинг қисмати эса мавҳум, онасини ўлдириш режасини тузиб келаётганида, милиция ходимлари халақит берадилар, уларнинг қўлидан қочиб кетади...

Академик М.Храпченко психологик таҳлилнинг динамик, типологик ва аналитик принциплари мавжудлигини қайд этиб, булар сўз санъаткорларининг ижодий маҳсули эканини таъкидлайди [7,229].

Дарҳақиқат, айрим асарларда бу принципларнинг учови ҳам “гармониялашган” (Ҳ.Умутов) бўлиши мумкин. Я.Камол ўз қаҳрамони ички оламини типологик характерлар ички ҳаётининг ижтимоий-маиший томонлари билан боғлиқ ҳолда кўрсатиб беришга эришган. Яъни Ҳасанни жиноятга, ғожиага бошловчи сабаблардан бири ижтимоий ҳаёт, жамият ва муҳит экани ойдинлашиб боради. Шу маънода, асар қаҳрамони айнан ўсмир бола эканлиги назарда тутилса, бундаги ҳар бир деталь, ҳатто бадиий этикага хилоф уятли сўз ва ҳақоратларнинг очик-ошқора ишлатилишини

жиноят фош этилишидаги рухий таранглик, психологизмнинг кўриниши тарзида тушуниш мумкин. Бинобарин, “Илонни ўлдирсалар” романидаги Ҳасан аввал оиласининг, сўнг ўзи яшовчи қишлоқнинг босими натижасида онасини ўлдирди. Гўё шундай қилиш унинг мажбурий бурчи эди. Ана шу ижтимоий асабийлик муҳити, қанчалик қаршилиқ кўрсатмасин, алал-оқибат Ҳасанни жиноятга ундади.

Қахрамоннинг кечинмаларини муаллиф жуда катта маҳорат билан ёритган. Асар сўнгида ўқувчи, гарчи Ҳасан ўз онасини ваҳшийларча ўлдирган бўлса-да, ундан нафратланмаслиги, уни айбламаслиги ҳам мумкин. Чунки ҳақиқий қотил аслида Чуқурова қишлоғининг жоҳил одамларидир. Мурғак, беғубор болакай эса уларнинг бу мақсадларига етишишлари учун восита, холос. Я.Камол бир қотиллик фонида нафақат бу жиноятга бевосита дахли бўлмаган янги қурбонлар, балки бутун жамият, муҳит, болалик ҳақ-ҳуқуқлари, келажак маънавиятига болта урган жоҳиллик фожиасини очиб берган. Ҳақиқий жиноят ана ўша қишлоқ ва унинг одамларидаги маънавиятсизлик, илмсизлик экани аён бўлади.

Қамариддин ҳам ўзбек болалар кассачилигида учрамайдиган мураккаб образ. Қолаверса, унинг психологияси айнан жиноят кўчасига кириб, суяги ҳам, кўзи ҳам, эти ҳам қотиб улгурган ўсмирлар оламини яхлит акс эттира олгани билан эътиборли. У билан боғлиқ лавҳалар кассанинг деярли барча фаслларида учрайди. Қамариддиннинг жиноятчи гуруҳ бошлиғига айланиб бориши, кўчада болаларнинг йўлини тўсиб, кассавурлик қилиши, пул сўраб, кўрқитиши... ҳатто пулдорроқ болалар унга “ҳисоб” бериб туриши, аста-секин қотилликка қўл урса-да, виждони қийналмай қўйгани ўқувчида нафрат уйғотиши табиий. Аммо “Аламзада одам ёхуд онаси ташлаб кетган боланинг аянчли ҳаёти ҳақида ҳикоя” фаслида китобхон Қамариддин билан юзма-юз келади, унинг ҳаёт тарзи ва жамият ҳақидаги фалсафасидан огоҳ бўлади. Асардан англашган ҳақиқатга кўра, “уни билиш, тушуниш учун Қамариддин бўлиб туғилиш, Қамариддин бўлиб яшаш, у тотган захар-заққумлардан тоттиш керак”лигини ҳис этади.

Т.Малик воқеаларни чинакам детективнавис адиб сифатида талқин этади. Жиноятни фош қилишда милиция ходимлари, ички ишлар фаолияти, майор ва капитан каби образларни фаол ҳаракатга келтиради. Бироқ жиноятга қўл урган ўсмир қахрамонларининг қалбини тинглашга ҳаракат қилгани, барча воқеани уларнинг нигоҳи билан таҳлил қилгани англашилади. Қамариддин: “Сенинг ҳимоячинг йўк, ҳеч ким сенга қайишмайди, ноҳақликка қарши ўзинг курашишинг керак. Ўзингни ўзинг ҳимоя қил, кураш, енгиб чиқ. Кимлигингни кўрсат уларга! Агар енгиб чиқолмасанг, ўзингни кўрсатиб қўя олмасанг, ўлиб кетганинг минг марта яхши!..” деган қасос алангаси билан олишади. Асрор ҳам, Қамариддин ҳам фарзандига меҳрсиз ота-оналарнинг “меваси” тарзида акс этиши мантиқан “Илонни ўлдирсалар” романига ҳамоҳанглигини асослайди.

Ҳар иккала детектив асарнинг асосида содир этилган жиноят турса ҳам, уларда инсон психологияси кўпроқ болалар ва ўсмирлар руҳиятининг теран ва оғриқли манзаралари орқали очиб берилган. Шу орқали содир бўлган жиноятнинг илдизи ҳам аниқлангани эътиборга лойиқ. Бунда жиноятчи уни содир қилган кимса – ўсмир эмас, балки уларни айнан воситага айлантирган жамиятнинг ўзи эканининг таъкидланиши мазкур асарларнинг муваффақиятини таъминлаган.

Бунда турк адиби эски ошиқ томонидан ўлдирилган ота учун онадан қасос олиш мотивидан фойдаланган бўлса, ўзбек адиби айнан детдом болаларининг қалбидаги кемтиклик, улардан воз кечган ота-оналардан қасд олиш алангаси билан боғлиқ мотивни келтирган.

Қамариддиннинг нафратига, энг аввало, бевафо онаси, сўнг беимон отаси, кейинчалик боласини ташлаб кетган жамийки аблаҳ ота-оналар сабаб ва у барчасини отиб ташлашга тайёр бўлса-да, ўз ота-онасига қўл кўтармайди. Асарнинг бош ғояси ҳам шу, назаримизда.

Хулоса қилиш мумкинки, Тоҳир Малик детектив наср устаси сифатида адабий алоқаларнинг ижодий таъсири воситасида ўз асарини ёзган бўлса ҳам, маънавий, диний ахлоқ меъёрларини унутмайди, аксинча, ўзбек болалар адабиётида қўл урилмаган мавзунини ёритишда жамият дунёқарашидаги кемтикликларни бадиий тадқиқ этади. “Биз ҳам кўп қатори ҳаётни, – деб ёзади Т.Малик, – хусусан, ўсмирлар ҳаётини, янада аниқроқ айтсак, жиноят оламига кириб қолганлар ҳаётини кузатиб, таҳлил қилиб, маълум бир фикрларга келганмиз”[6]. Шу маънода, умуммаданий ходисани умуммиллий ифодалаб, поэтик тафаккур янгиланишига эришилган.

Таъкидланганидек, эндиликда болалар адабиёти намуналарини жаҳон адабиёти контексти доирасида ўрганишга эндиликда кенг имкониятлар очилмоқда. Таржима қилинаётган асарлар келажакда бу йўналиш тараққиётига, албатта, хизмат қилади. Жумладан, жаҳон болалар адабиёти сериясида нашр қилинаётган жуда кўп асарлар бунга далилдир.



Ўзбек болалар адабиётининг таракқиётида жаҳон болалар адабиётининг ижодий таъсири, алоҳида ўрни бор. Хусусан, истиқлол йилларида куплаб мамлакатларнинг болалар адабиёти намуналарини ўзбек тилида таржима қилиниши ва нашр этилиши бу жараённинг янада фаоллашувига сабаб бўлмоқда. Жумладан, Туркия болалар адабиёти намуналарининг кенгқамровли таржимаси ва нашри фикримизга далил бўла олади. Етук ўзбек болалар шоири ва таржимони Миразиз Аъзамнинг бу борадаги хизматлари ҳам таҳсинга сазовор. Шоир таржималари асосида бунёдга келган қатор турк ижодкорлари, масалан, Тавфиқ Фикрат, Нозим Ҳикмат, Гултан Дойи ўғли, Али Оқбош, Мустафо Қутлу, Мустафо руҳи Ширин кабиларнинг болалар учун ёзган асарлари орқали икки ҳалқ ижодидаги муштарак хусусиятларни яққол англаш мумкин. Яъни, турк болалар адабиётидаги мавзулар олами, бола руҳияти ифодаси, жониворлар ва ҳайвонларга муносабат талқини, ифода усулларида ўзбек болалар адабиётига ҳамоҳанглик кўзга ташланади.

Али Оқбош Туркиянинг ҳозирги замон болалар адабиётида муҳим ўрин эгаллаб турган шоирларидан. Унинг шеърларида болалар олами, руҳияти устувор. Айни пайтда катталар оламининг армонлари лирик қаҳрамон туйғуларида теран акс этган шеърлари ўзбек болалар шоири Сафар Барноев шеърлятига ҳамоҳанг. Ҳар иккала шоир ўтган асрнинг 40-йилларида туғилиб, ўз юрти маорифи ва болалар адабиёти равнақига катта ҳисса қўшган. Бинобарин, Али Оқбошнинг “Бувимга алла” шеърини С.Барноевнинг “Қўшни кампир илтижолари” шеъри билан қиёслаб ўрганишга лойиқ. Турк болалар шеърлятининг лирик қаҳрамони ўз бувиси қисмати, ўксик қалби армонларини баён қилади:

Ойни ўраб олган булут,  
Бошида рўмол бувимнинг...  
Бувим гузал, айб ойнада,  
Бувим каби йўқ дунёда[1, 64].

Шеърдаги булут сўзи бувининг бошида қайғу борлигидан далолат беради. Лирик қаҳрамоннинг ойнани айблаши ҳам бежиз эмас. Бувининг ранги рўйи сўлгин, эрта кексайган жисмида ёшликнинг, гўзалликнинг аломати сезилмаслиги англашилади. Кейинги мисраларда эса бу фикр ўз исботини топади:

Сафарбарликнинг сўнаси,  
Сўнган сочининг хинаси,  
Бувим уч шаҳид онаси,  
Боши қордан оқ бувимнинг.

Кичик китобхон бувининг ған-андуҳи сабабини энди ҳис қила бошлайди. Уч ўғлининг шаҳид кетганидан “боши қордан оқ”. Шоир ифодасида маъно янада таранглашади. Хина кетиши билан сочининг оқаришидан ташқари қош, киприқлар оппоқ тусга кириши юқоридаги иборанинг мазмунини кучайтиради. Бу ёзикликнинг бувини эзиши, кўзлари ҳамиша “сувлук” бувининг кейинги мисраларда телба шамол дастидан “тўкилган япроқ”қа ўхшатилиши ҳам бу дарднинг нечоғли оғирлигини аёнлаштиради. Шу сабали бувисининг бу аҳволдан оғир изтиробга тушган ёш лирик қаҳрамон бувисининг макони учмоқ эканлигига ишонади. Яъни, сабр билан, оғир бир тошни бағрига босиб ясааш азобини лирик қаҳрамон идрок эта олган.

Сафар Барноевнинг “Қўшни кампир илтижолари” шеърида ҳам фарзанд доғини обдон туйган она сиймосини гавдалантирилади. Фақат бунда лирик қаҳрамон ёш бола эмас, айнан кампирнинг ўзи:

Қари тутнинг шохларидек суяқларим мўрт бўлди,

Йўлингизга қарайвериб, бу кўзларим тўрт бўлди, – деб бошланувчи сатрларда онанинг ҳасратлари лирик қаҳрамон ҳикояси тарзида баён қилинган. Унинг қўшниси бўлмиш ўша кампирнинг уч ўғли кетма-кет урушга кетади ва уччаласидан ҳам қора хат келади. Уларнинг йўлига кўз тутавериб, ғамдан мунғайиб қолган кампирнинг нолалари чинакам йиғи-йўқловни эслатади:

Омон ўғлим!  
Даврон ўғлим!  
Султон ўғлим!  
Жон ўғлим!  
Ой-юлдузим, бошимдаги осмонларим эдингиз,  
Алпомишдай, Алпомишдай посбонларим эдингиз,  
Элу юртга кўз-кўз қилган посбонларим эдингиз...  
Мен чиройда ой эдим,  
Бағрим бутун, бой эдим.  
Уч ўғлим бор, уч шунқорим,-

Дея хотамтой эдим [2, 56].

Кампир уч ўғил тукқанида севинчларга сиғмагани, ҳар бир ўғлининг номи ўз мазмунига эга экани, уларни умумлаштириб “Жон ўғлим” деб аташи бежиз эмаслигини айтиб бўзлайди. Афсус надоматлар бўлсинки, бир куни она қалби букилади, кўздан ёши тўкилади. Шу сабабли унинг изтироблари янада аянчли тус олади:

Авайлаган, асраган юракдан дармон кетди,  
Қора бўлди кундузим, бошимдан осмон кетди.  
Сизни кетма-кет туғдим,  
Дейишганди катта бахт,  
Кетма-кет учингиздан,  
Келиб қолди қора хат.  
Қонга тўлган юрагим мозорларга айланди,  
Ҳасратларим тугамас бозорларга айланди.

Шу тарика, лирик қаҳрамон қўшни кампирнинг фарёд тўла дардини, ўз ўғилларини сўрай-сўрай куёшдайин уфқ сари ботиб боришини, демакки умри поёнига етаётганини афсус билан тилга олади.

Кўринадики, икки халқ болалар шеърлятида бир хил мавзу, бир хил оҳангда, ўзаро уйғун композицион шаклда ифода этилган. Шаҳид кетган фарзандлар доғида жисмонан ва руҳан мажруҳ бўлган оналар сиймоси, армон ва ўкинчлари макон ва замондан қатъий назар ўхшаш туйғуларда инъикос этиши англанади. Умуман, адабиёт ҳақиқатан шундай мўъжизаки, чинакам санъат асарлари миллат, ирқ, замон танламайди. Инсоният кечинмалари баайни реалистик ифодага бойлиги билан бир хил таъсирчанлик қудратига эга. Қолаверса, катталарми, болаларми уларнинг ботини, руҳияти очиб берилган асарда инсон қалби яшайди. Уни ҳис қилиш, тафаккурлаш орқали англаш бахтига муяссар бўламиз. Шу маънода, турк ва ўзбек болалар адабиётидаги муштарак хусусиятлар насрда ҳам яққол кузатилади.

Мустафо Қутлунинг “Юлдуз чанги” ҳикоясидаги айнан ўсмир бола руҳияти, туйғулари ифодаси А.Қодирийнинг “Улоқда” ҳикоясидаги ўсмир кечинмалари билан муштараклик касб этади.

“Улоқда” ҳикояси қаҳрамони ўн икки яшар Турғун чавандоз эканлиги, унда ёш Турғун таърифи, болалик завқи, янги кийим кийгандаги қувонч ва ғурурининг табиий тасвири болалар образи поэтик талқинининг бадий юксак намунаси сифатида эътиборни тортади. Қолаверса, улоқ ўйинининг барча таассуротлари ўсмир Турғун ҳис-туйғулари, руҳий олами, севинчу шодлиги орқали ифодаланиши воқеа тасвири жиҳатидан руҳият ва характер ҳолати тасвири устуворлигига кўра ХХ аср бошларидаги ўзбек ҳикоячилигидагина эмас, болалар насрида ҳам жиддий ютуқ, дейишга асос бўлади.

“Юлдуз чанги” ҳикоясининг қаҳрамони ўсмир бола. Унга тоғаси совға қилган велосипед қувончи Турғундан кам эмас: “Бизнинг Қасаба жуда кичкина, жуда оз велосипед бор, улар ҳам мансабдор кишиларнинг болаларида. Энди менинг ҳам мана бир велосипедим бор. Ҳаммасининг ҳавасини келтираман, ҳеч кимсага миндирмайман. Ҳар куни артиб ярқиратиб қўяман. Зотан, яп-янги, ҳеч ким қўл теккизмаган. Қасабанинг энг чиройли велосипеди бу. Ўзим ҳам минишга кўзим қиймай турибди. Ё йиқилсам, ё велосипедга бир нарса бўлса!..” [3, 74]

Ҳикоя қаҳрамони укаси Канонни велосипедга ҳаваси келса ҳам миндирмагани учун бир куни тонг сахарлаб, уни миниб қочгани ва зовурга йиқилиб ҳушидан кетиши ва бундан акаси укасини ўлиб қолди деб кўрқиб кетишидаги руҳий изтироблари, укаси танлаган юлдузнинг учганини кўриб, дашту қамишзорлар оша “қўлига қўндириб”, яна учириб юборганлиги қизиқарли ҳикоя сюжетини ташкил қилган.

Ҳар икки ҳикоядаги ўхшашлик асар қаҳрамонларининг янги бир воқелиқдан қаттиқ ҳаяжонга тушиб, чексиз орзу-хаёлларга берилиши, аммо алал-оқибат бу қувончли ҳодиса қайғуга уланиб кетгани ёш қаҳрамонлар қалбини яралаб қўйгани теран акс этганидир. Турғун чавандоз кўпкарида одамлар оёғи тагига қолиб кетиб, ўлишига сал қолган бўлса, Канон акасининг велосипедига учаман деб ўлишига оз қолади ва бундан акаси қаттиқ пушаймон бўлиб, шунчалик яхши кўрган велосипедини ўртоғи, оиласи ночор, ўзи етим Абдурахмонга бериб юборади.

**Хулоса.** Бундан англашиладики, болалик олами қувончлари ва кўркувлари ифодаланган қаҳрамонлар туйғуси ҳам макон ва замон танламайди. Барча халқлар адабиётига хос муштаракликлар шу тарика мамлакатлар маданияти тараққиётига хизмат қилаверади.

Дарҳақиқат, кичкинтойларнинг кўнглини топиб, диққати ва завқини оширадиган истеъдоднинг ўзигина етмайди. Шу билан бирга моҳир муаллим каби бола қалбининг муҳандиси ҳам бўлиш талаб қилинади.

Турк ва ўзбек болалар адабиётидаги бадиий жозиба улардаги муштаракликни таъминлаган асосий омилдир. Ёш қаҳрамонлар руҳияти ва туйғуларини теран бадиий акс эттириш маҳоратини асарлар таҳлилида кўплаб топиш мумкин.

### АДАБИЁТЛАР :

1. *Али Оқбош. Бувимга алла. Китобда: Жаҳон болалар адабиёти: Туркия, Эрон. – Тошкент, 2016. – Б.64.*
2. *Барноев Сафар Тинчликни улуглаймиз. Тошкент: “Ёш гвардия”, 1988.*
3. *Мустафо Қутлу . Юлдуз чанги. Китобда: Жаҳон болалар адабиёти: Туркия, Эрон. – Тошкент, 2016. – Б.74.*
4. *Камол Я. Илонни ўлдирсалар. Турк тилидан Л.Аминова тарж. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2001. – Б.187.*
5. *Malik Tohir. Alvido bolalik. – Toshkent: Sharq, 2009. – 188 b.*
6. *Malik Tohir . Jinoyatning uzun yo 'li. [https:// www.ziyouz.com kutubxonasi](https://www.ziyouz.com/kutubxonasi)*
7. *Умуров Ҳ. Ўзбек романида психологизм принциплари, шакллари ва воситалари: Ўзбек адабий танқиди. Антология. – Т.:Турон иқбол, 2011. – Б.239.*

### HAMZA IMONBERDIYEV SHE'RIYATIDA RAMZIYLIK VA ERK MOTIVI IFODASI

*Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna,  
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi  
[nuritdinovashahnoz@gmail.com](mailto:nuritdinovashahnoz@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek bolalar she'riyatida yangicha an'ana va uslubni boshlab bergan ijodkorlardan biri H.Imonberdiyev she'rlaridagi ramziylik, obrazlar olami hamda erk va ozodlik motivi ifodasi tahlil qilingan. Hamza Imonberdiyev she'rlarida asosan falsafiy mushohada yetakchilik qiladi. Shoir jamiyatdagi ijtimoiy dolzarb masalalarni obrazli ifoda etishga harakat qiladi.

**Kalit so'zlar:** motiv, uslub, poetic, yumor, erk, hazil, obraz, taassurot, bolalar, shoir, tuyg'u, she'r, lirika, pedagog, qahramon, taqlitchilik, jasorat, mehnatsevarlik

**Аннотация:** В статье анализируется символика, мир образов и выражение мотива свободы и вольности в стихах Х. Имонбердиева, одного из творцов, положивших начало новой традиции и стилю в узбекской детской поэзии. В стихах Хамзы Имонбердиева он занимает ведущее место в философском наблюдении. Поэт пытается образно выразить актуальные социальные проблемы в обществе.

**Ключевые слова:** мотив, стиль, поэтический, юмор, мужество, образ, впечатление, дети, поэт, чувство, стихотворение, лирика, педагог, герой, подражание, мужество, трудолюбие.

**Annotation:** The article analyzes the symbolism, the world of images and the expression of the motive of freedom and freedom in the poems of H. Imonberdiev, one of the creators who started a new tradition and style in Uzbek children's poetry. In Hamza Imonberdiyev's poems, he takes the lead in philosophical observation. The poet tries to figuratively express the current social issues in the society.

**Key words:** motive, style, poetic, humor, courage, humor, image, impression, children, poet, feeling, poem, lyric, pedagogue, hero, imitation, courage, hard work.

**Kirish.** Mustaqillik davri o'zbek bolalar adabiyoti yangi an'ana va uslubiy o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, poetik falsafiy mushohadining teranligi, obrazlilik, mushohadakorlik davr bolalar she'riyatida keng o'rin egallaydi. Oddiylikda yashiringan murakkablik, xususiylik orqali aytilgan umumiylik ko'pgina she'rlarida o'z aksini topayotganligi ayni haqiqat. Jumladan, Hamza Imonberdiyev she'rlarida, asosan, falsafiy mushohada yetakchilik qiladi. Shoir jamiyatdagi ijtimoiy dolzarb masalalarni obrazli ifoda etishga harakat qiladi. H.Imonberdiyev ehtirosli, teran tafakkurli bolalar shoiri. Kattalar nazaridagi g'alatilik kichik kitobxon nazaridagi sehg'arlikka mos keladi. Kattalar uchun g'aroyib bo'lgan narsa kichiklar uchun "tushunish" so'zini anglatadi. Atrof-muhit, tabiatni, jamiyatni tushunish ma'naviyatimizning asosi deb qaralsa, kichik kitobxonlarning murg'ak qalbida sof tuyg'u va samimiy munosabatlarni tarbiyalash nihoyatda muhimdir. Bolalar ma'naviyatini qayta kashf etish, hayot muammolarini keng ko'lamda teranlik bilan idrok etish jarayonida o'quvchini mustaqil mushohada yuritishga undash bolalar she'riyatining bosh vazifasidir. Shu boisdan har bir shoirning she'ri rang-barang tafakkurga ega bo'lgan o'quvchilarda turli xil taassurot qoldirishi, o'y-fikrlar uyg'otishi tabiiy. Binobarin, Hamza Imonberdiyev she'rlarida bolalar olami o'ziga xos uslubda talqin etiladi. Shoir istiqloqlning dastlabki yillarini ko'rди, xolos. Shunday bo'lsa-da, H.Imonberdiyev umrining so'nggi kunlarigacha yosh avlod tafakkuridagi yangilanishni his qilib, o'z ijodi orqali bu jarayonga hissa qo'shди.

Shunisi diqqatga sazovorki, shoirning ko'pgina she'rlari yarim hazil, yumor tarzida yozilgan. Qolaversa, bunday she'rlarning bosh qahramonlari bolalar. Zero, voqea-hodisalar ular nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, siyosiy voqealarga yosh avlod munosabati ifodasi, ularni idrok qilish darajasi ham shu ma'noda o'ziga xos.

**Asosiy qism.** Shoir yosh lirik qahramonlarni real hayotda erkin, aralashtirib yuboradi. Kichikintoylar mustaqil ravishda tarixiy voqealar, ijtimoiy hayot hodisalariga "qorishib" ketadilar, sarguzashtlarni boshdan kechiradilar. Aytaylik, shoirning "Sog'inchli salom xat" she'ri shu jihatdan e'tiborli. Kichikintoy lirik qahramon harbiy xizmatdagi akasiga ko'plab xatlar yozadi. Ularning ko'pchiligi alohida sanalar bilan bog'liq. Masalan, 30-apreldagi maktubida akasiga sog'lik-omonlik tilash bilan birga, komandirlarga "bosh

## HISTORY

1) Rossiyada sanoatni rivojlanishi va uning xomashyoga bo'lgan talabining ortishi bilan xomashyo manbai va sanoat mollarinin bozori sifatida O'rta Osiyoning ahamiyati oshgan;

2) Rus hukumati O'rta Osiyo bilan savdo aloqalarini kengaytirish uchun harakat qilib, XIX asrning boshida Rossiyadan O'rta Osiyo bozorlariga metal chiqarishga va mahalliy O'rta Osiyo savdogarlariga Rossiyaning ichki yarmarkalarida savdo qilishga ruxsat bergan;


3) O'zaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi uchun bu vaqtlarda asosiy to'sqinliklardan biri Qozog'iston cho'llaridagi talonchilik bo'lib, Rossiya bu talonchiliklardan savdo karvonlarini mudofaa etish uchun birinchi marta karvonlarni harbiy otryad bilan kuzatishni uyushtirgan; XIX asrning 30-50-yillarida Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar qayt qilinar ekan, avvalo, bu munosabatlarning asosini tashkil etgan iqtisodiy aloqalar va ularning umumiy holati ustida biroz to'xtab o'tish lozim. Bu vaqtlarda Buxorodan Rossiyaga chiqariladigan mahsulotlarining asosi: paxta, yigirilgan ip va mahalliy to'qima ip gazlamalardan iborat bo'lib, paxta bilan yigirilgan ip Buxoro eksportining 25 protsentini, ip gazlamalar ham 25 protsentini tashkil qilgan. Bulardan tashqari, Buxorodan gilam, har xil mo'ynalar va quruq mevalar chiqarilgan. Buxorodan Rossiyaga chiqariladigan mahsulotlarning umumiy hajmi 1837-1839-yillar uchun berilgan ma'lumotlar bo'yicha, yiliga o'rta hisob bilan, 264 ming so'mdan to 3.550 ming so'm orasida tebranib turgan bo'lsa, Rossiyadan Buxoroga keltirilgan mahsulotlarning umumiy hajmi yiliga, o'rta hisob bilan olinganda, 1.180 ming so'mdan to 1 600 ming so'mgacha yetib borgan edi.

Xuddi shu vaqtlarda Rossiyadan Buxoroga chiqariladigan mahsulotlar, asosan, to'qima ip-gazlamalar, movut, charm; metallardan: mis, temir, cho'yan, metal buyumlar, oltin va bo'yoqdan iborat bo'lgan. N.Xanikovning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Rossiyadan Buxoroga 1830-yilda 1 million 834 ming 571 so'm 80 tiyinlik mol chiqarilgan bo'lsa, 1840-yilga kelganda Buxoroga olib kelingan rus mahsulotlarining umumiy hajmi 3 million 283 ming 654 so'mgacha oshib borgan edi.[7:171] XIX asrning 30-40 yillari davomida Rossiya va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi savdo aloqalarining yangi xarakterli holatlaridan biri: bir tomondan, O'rta Osiyodan Rossiyaga olib boriladigan mahsulotlar ichida paxtaning hajmi yigirilgan ipga nisbatan ancha oshgan, ikkinchi tomondan, Rossiyadan O'rta Osiyo bozorlariga olib kelinadigan mollarning orasida tayyor mahsulotning, jumladan to'qima ip-gazlamalarning solishtirma og'irligining asta-sekin orta borishidan iborat edi. 1834-1840-yillar ichida Rossiyadan O'rta Osiyoga olib kelingan mahsulotlar umumiy hajmining 50-60 protsenti tayyor mahsulotdan iborat edi. XVIII asrning oxiriga kelganda Buxoro Samarqand ham savdo-sotiq markazi hisoblangan. Bu haqida Samarqand tarixi asarida quydagilar ta'kidlagan: "XVIII asr oxiriga kelib Samarqand bozorlarida Hindiston, Rossiya, Xitoydan turli buyumlar keltirilar. O'z navbatida Samarqand ham shu mamlakatlarga qog'oz, olachadan tayyorlangan choponlar, sopol buyumlar, quruq meva, qorako'l teri, ot-ulovlar yetkazib berardi. XIX asrning birinchi yarmida ichki va tashqi savdo yanada o'sganligi tashlanadi. Shaharda Karvonsaroylar va do'konlarning ko'payganligi ana shundan dalolat beradi. [6:285]

Qisqacha **xulosa** qilib shuni aytishim mumkinki, amir Shohmurod davrida Buxoro va Rossiya o'rtasida yaxshi munosabatlar yo'lga qo'yilgan. Bu davlatlar oldindan yaqin munosabatda bo'lsada Shohmuroda davriga yangi pog'onaga ko'tarildi. Ayniqsa savdo-sotiq masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ikki davlat o'rtasida savdo-sotiq munosabatlarning yaxshi yo'lga qo'yilgan. Buxoro amirligi davrida Rossiya bilan savdo qilish ikki tarafni ham qoniqtirgan. Bizda tayyor mahsulotga bo'lgan ehtiyojni qondirgan bo'lsa, Rossiya esa mahsulotlarini sotadigan bozor yaratgan va sanoati uchun xom ashyo manbasi sifatida xom ashyolarni olib ketgan. Bu bilan ikki tomon o'z manfaatlari yo'lida savdo-sotiqni rivojlantirib borgan.

### ADABIYOTLAR :

1. Eshov B. *O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi*. Toshkent: 2002.
2. *Записки о Бухарском ханстве. Отчёты П.И.Демезона и И.В.Виткевича*
3. Михалева Г.А *Узбекистан в XVIII первой половине XIX века: ремесло, торговля и пошлины*. – Т.: 1991.
4. Muhammadjonov A. R. Ne'matov T. *Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba'zi manbalar*. – Т.: 1967.
5. Мейендорф Е .К. *Путешествие из Оренбурга в Бухару*
6. *Самарқанд тарихи. 1-том. Ўзбекистон ССР. Фан нашриёти*. – Т.: 1971. .
7. Ханыков Н. *Описание Бухарского ханства*. СПб., 1843.



**"SCIENTIFIC REPORTS  
OF BUKHARA STATE  
UNIVERSITY"**

The journal was composed  
in the Editorial and  
Publishing Department of  
Bukhara State University.

**Editorial address:**

Bukhara, 200117  
Bukhara State University, main  
building, 2<sup>nd</sup> floor, room 219.  
Editorial and Publishing  
Department.  
[https://buxdu.uz/32-buxoro-  
davlat-universiteti-ilmiy-  
axboroti/131/131-buxoro-davlat-  
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)  
e-mail:  
nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted  
29.04.2023 y. Paper format  
60x84,1/8. Printed in express  
printing method. Conditional  
printing plate – 35,30.  
Circulation 70. Order № 30.  
Price is negotiable.  
Published in the printing house  
"Sadridin Salim Buxoriy" LLC  
Address: Bukhara,  
M.Ikbol street, 11